

TONG Yulduzi

№50 (66383)
2002 yil
9 dekabr,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiq boshlagan.

Jizzax viloyatida iqtidorli o'quvchilar tahsil oladigan iste'dodlilar maktabi ham bor ekan. Ushbu Oxunboboyev nomli 6-umumta'lim maktabiga yaqinlashar ekanmiz, birin-ketin ajib manzaralarning guvohi bo'la boshladik. Yo'lining ikki tomonida navbatchi bolalar yashil, qizil, sariq bayroqchalarni ko'tarib, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining katta yo'ldan o'tishlarini nazorat qilib turishibdi. Ko'k bayroq ko'tarilganda biz ham yo'ldan o'tib, maktabga kirdik. Kirdigu o'zimizni go'yo maktabga emas, bolalar mamlakatiga kelib qolganday his qildik. O'quvchilarning ko'pligini ko'rib, xayolimdan, shuncha o'quvchi qayerga sig'arkin, nima, shaharda bundan boshqa maktab yo'qmi, kabi savollar o'tdi. Bizga peshvoz chiqqan maktab direktori, xalq ta'limi a'lochisi Gulbahor Karimova xayolimni uqqandek:

- Nimaga buncha o'quvchi ko'p, deb hayron bo'layapsizmi? - dedi jilmayib.

- Nimagaligini anglagandayman. Shahardagi eng yaxshi, namunali maktab bo'lsa kerak-da.

- Yanglishmadingiz, ammo, maktabimiz boshqa maktablardan uncha farq qilmaydi. Birgina farqi, biz o'quvchilarni emas, o'qituvchilarni sinovdan o'tkazib, ishga qabul qilamiz. Jamoamizda mehnat qilayotgan 120 nafar o'qituvchining 30 nafari oliy toifali ustozlar ekanligi ham fikrimizni isbotlaydi. Ko'pchiligi hukumatimiz mukofotlari sohiblari. Bayramimiz arafasida o'z kasbining ustasi, nemis tili fani o'qituvchisi Mohira Xo'jayeva Xalq ta'limi a'lochisi

unvoni olganligi jamoamizni yanayam ruhlantirib yubordi. Biz bir-birimizga ustoz, bir-birimizga shogird bo'lib mehnat qilamiz. Jamoamiz nihoyatda ahil. Har yili kutubxonamiz fondini yangi qo'llanma va adabiyotlar bilan boyitib boramiz. «Tong yulduzi»

o'g'itlari xayolimga kelaveradi... 2380 nafar o'quvchilarimiz orasida zukko, iste'dodlilari talaygina. Biri sport borasida g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, yana biri she'riyat olamida kurtak ochmoqda. San'at yo'lida izlanayotganlar ham kam emas. Ingliz tili bilimdonlari-yu

chiqqach, bir guruh o'quvchilar bilan ham suhbatlashdik:

Mahfuza BOZOROVA, 10 - sinf o'quvchisi:

- Men adabiyotni sevaman, she'riyat ixlosmandiman. Yaqinda Respublika yosh ijodkorlarining an'anaviy Zomin seminarida ishtirok etdim. U yerda Abdulla Oripov, Omon Matjon kabi tanikli shoir va adiblar bilan muloqotda bo'ldik. Ular bizga oq yo'l tiladilar.

O'tkir QOSIMOV, 9 - sinf o'quvchisi:

-Hozirgi kunda yoshlar, ayniqsa, o'g'il bolalarning kitob o'qishga hafsalasi yo'qroq, degan gaplar quloqqa chalinib qoladi. Menimcha, hammasi ham emas. Shaxsan mening badiiy kitob o'qish jonu dilim. Shu kunlarda «Hayratul-abror» ni o'qiyapman...

Farangiz INOMOVA, 8 - sinf o'quvchisi:

-5 yil davomida ingliz tili kursiga qatnab, referent-tarjimon sertifikatini oldim. Bolaligimdan pianino chalaman. O'qishni tamomlab, ikkita oliygohda o'qiyman. Bastakor va tarjimon bo'lmoqchiman va men buni albatta uddalayman.

Oydin JO'RAYEVA, 9 - sinf o'quvchisi:

-Taekvando bilan shug'ullanaman. Sportchi bo'lishimga qarshilar ko'p bo'lsa-da, kelajakda asqotadi, deb o'ylayman. Qolaversa, salomatligimizni mustahkamlaydi...

Fikrlari teran, dunyoqarashlari keng bo'lgan bolajonlar bilan suhbatlashar ekanman, maktab rahbarining so'zlarida hech mubolag'a yo'qligiga amin bo'ldim.

Asliddin SUYUNOV
suhbatlashdi.



taxlamlari to'liqligidan maktabimiz eng gazetxon o'quvchilari bilan ham faxrlanishiga ishonasiz. Bolalarning ko'zlariga boqib, Prezidentimizning «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart» degan

iqtisod sohasining ixlosmandlari, xullas, turli sohaning bo'lajak egalari bor. Ingliz tiliga, iqtisodiy sohaga qiziquvchilar uchun alohida kurs tashkil qilingan bo'lib, uni bitirib chiqqanlarga sertifikat beriladi.

Biz maktab direktori huzuridan

maktab yo'q. Mana necha yildirki «Maktab qurib beramiz!» deb ko'krak kerib gapirishadi. Lekin amalda esa uni aksi. O'quvchilar maktab

UCH CHAQIRIM BO'LGAN MAKTAB

uzoq bo'lgani uchun xohlagan vaqtida borishadi, xohlashmasa yo'q. Bolalarning umuman o'qishga qiziqishi yo'q. Natijada bolalar bekorchilikdan ichish, chekishga berilib ketgan. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari o'qishni butkul tashlab qo'ygan. Bir o'yab ko'raylik, 1-,2-sinf o'quvchilari qishning sovuq kunlarida qanday qilib uch chaqirim masofani bosib o'tib o'qishga boradi? Ota-onasi esa shu to'rt soat o'qishga yuborishdan ko'ra uyda olib qoladi. Chunki, o'z bolasini bir kun o'qishga yubordim deb o'n kun kasal bo'lib qolishini hech

kim istamaydi, axir! Shunday qilib, bolaning o'qishga qiziqishi yo'qoladi. Bu narsalarni ko'ra-bila turib ko'rmasdan o'tib ketish menimcha odobdan

bo'lmasa kerak. Shaxsan o'zim ham 1-6-sinfgacha shu maktabda o'qiganman. Hattoki, o'sha biz 4-5-sinflarda ham maktab qurib beramiz, deb haligacha mana shu gap qaytarilib kelinmoqda. Bu hol yana shunday davom etishini o'ylasam, yuragim orqaga tortib ketadi. Undan tashqari, bolalar bo'sh vaqtida shug'ullanadigan biror bir sport majmualari ham yo'q. Qishlog'imizga maktab qurilsa maqsadga muvofiq ish bo'lar edi. Chunki qishlog'imizdagi bolalarga o'qish imkoniyati berilsa, albatta o'qishadi.



Men Surxondaryo viloyati Termiz tumanining Xalqobod shirkat xo'jaligidagi «Yangi hayot» mahallasida turaman. O'quvchilar «Kaptarxona» qishlog'idagi 2-o'rta umumta'lim maktabiga uch chaqirim bo'lgan masofani bosib o'tib borishadi.

Bu masalani yozishimdan maqsad, o'z qishlog'imizdagi do'stlaringa va boshqa bolalarga rahmim keladi. Chunki ular maktabgacha uch chaqirimlik yo'lni bosib o'tib, maktabga borishadi. O'zimizning qishlog'imizda esa



Jonibek QURBONAZAROV,
Respublika Nafis san'at litseyining
9-sinf o'quvchisi.

Prezident qarorini o'rganamiz
MILLIY ISTIQLOL G'OYASI:
ASOSIY TUSHUNCHA
VA TAMOYILLAR

(Davomi.
Boshi o'tgan sonlarda.)

Komil inson

Komil inson g'oyasi — ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

Bu g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

Komil inson g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. U islom falsafasidan oziqlanib, yanada kengroq ma'no-mazmun kasb etgan. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa, teran ifoda topgan.

Hazrat Navoiyning «Kamol et kasbkim, olam uyidin Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq, Jahondin notamom o'tmak biaynih, Erur hammomdin nopok chiqmoq» degan fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlarga bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda Sog'lom avlod harakatining keng tus olgani, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir.
(Davomi bor.)



«Barcha odamlar qonun oldida tengdirlar va hech bir tafovutsiz qonunning teng himoyasiga haqlidirlar. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyani buzuvchi har qanday kamsitishdan va shunday kamsitilishga undaydigan har qanday g'alamislikdan teng himoya qilinish huquqiga egadirlar».

7-modda.

Sinf rahbarimiz navbatdagi tarbiyaviy soatimizni inson huquqlari mavzusiga bag'ishladilar. Biz birin-ketin inson huquqlari deganda nimani tushuniladi, deya savol bera boshladik. Opamiz esa bizga inson huquqlari haqida tushuntirishga harakat qildilar.

1948 yil 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tasdiqlabdi va e'lon qilibdi. Ushbu tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan qaror qabul qilinar ekan, Bosh Assambleya Tashkilotning barcha a'zo davlatlariga

Deklaratsiya matnini ommaviy chop etishga va mamlakatlar va hududlarning siyosiy maqomlaridan qat'iy nazar, asosan maktablarda va boshqa o'quv maskanlarida tarqatishga, e'lon qilishga va tushuntirishga qaror qilindirdi.

Inson huquqlari insoniyat mavjudligining va birgalikda yashashining asosidir. Inson

HUQUQINGNI BIL, INSON!



huquqlari barcha uchun umumiy, ajralmas va o'zaro bog'liqdir. Aynan inson huquqlari bizni yuksaklikka, bilimdonlikka yetaklaydi. Ular

Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega.



Ta'lim olishda hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim.

«Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olishda hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi yetadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak».

26-modda.

barcha din va madaniyatlarga xos bo'lgan tinchlik va taraqqiyot asosi bo'lgan o'zaro ahillik an'anasini o'zida mujassamlashtirgandir. Inson huquqlari hech bir madaniyatga begona emas va barcha xalqlar uchun tabiiydir.

Kelishuvchanlik va bag'rikenglik hamma vaqt davlat boshqaruvi va inson odob-ahloqining intilish hislatlari bo'lib kelgan. Biz bugungi kunda ushbu hislatlarni inson huquqlari dey a atamoqdami.

Inson huquqlari har qanday chegaralarni kesib o'tadi. Barcha to'siqlarni bartaraf etadi, har qanday kuchni mahv etadi.

Bizning vazifamiz esa ushbu huquqlarni mukammal o'rganish va hamma vaqt amalga oshirishga ko'maklashish ekan.

Alisher
ABDULLAJONOV,
Poytaxtimizdagi
206 - maktab o'quvchisi.

muqaddas insoniy qadriyatlar uyini qurishimiz uchun yaratilgan tamoyillardir.

Biz yashash va rivojlanish to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, o'zaro muvosi, do'stlik va bardoshlilik to'g'risida gapiramiz. Ularsiz biz o'z huquqlarimiz to'g'risida so'zlay olmaymiz. Inson huquqlari mavjud

KEMTIK DILLAR BUT BO'LAR

Men 100 - maxsus maktab-internatda tahsil olaman. mehmonlarga ham manzur bo'ldi. Uni siz Yaqinda maktabimizga ko'plab mehmonlar

TEZROQ SOG'AYIB KETING

kelishdi. Ularga «Umid nihollari» sport bellashuvlarida faol qatnashib, 1 - o'rinni qo'lga kiritgan sinfimiz o'quvchilari haqida so'zlab berdik.

Mehmonlar kompyuter saboqlari, musiqa, tasviriy san'at kabi to'garaklar bilan ham yaqindan tanishdilar. Men adabiyot to'garagiga qatnashaman. She'r va hikoya yozishni shu to'garakda o'rganganman. Yozgan she'rim

h a m
o'qib ko'ring:
Ey aziz tengdoshlarim,
Tezroq sog'ayib keting.
A'lo o'qib, o'rganib,
Barcha orzuga yeting.
Sabr toqatli bo'ling,
Sog'lig'ingiz saqlangiz.
Ota-ona, Vatanning,
Ishonchini oqlangiz.

Xusan
NIZOMIDDINOV,
Toshkentdagi 100-maxsus
maktab-internatning 6 - «A»
sinf o'quvchisi.

NOGIRONLAR NIGORON EMAS



Assalomu alaykum, sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»!

Biz sinfimiz qizlari sinf rahbarimiz Dilfuza opa Xo'jayeva va mehnat o'qituvchimiz Zulfiya opa boshchiligida «Sehrli barmoqlar» degan to'garak tashkil qilganmiz. To'garakda biz har xil yumshoq o'yinchoqlar, gerbariylar, guldonlar, qurigan gul va barglardan gulchambarlar yasashni o'rganyapmiz. Hayotda hunar o'rganish har doim kerak bo'ladi. Birimiz tarbiyachi, birimiz o'qituvchi, birimiz chevar, birimiz shifokor bo'lishimiz mumkin. Qaysi kasbni tanlamaylik, hammasida ham shu o'rganganlarimiz asqotishi mumkin. Yasalgan chiroyli o'yinchoqlarimiz anchagina bo'lib qoldi. Adabiyot ustozimiz Ma'fura opa bilan maslahatlashib, shahrimizdagi 100-maxsus maktab-internatiga borib, adabiyot fanidan o'rgangan she'rlarimiz, qo'shiqlarimizni ijro etib, u yerdagi o'quvchilar ko'nglini ko'tarishni rejalashtirdik. Yana o'zimiz mehnat fanidan tayyorlagan o'yinchoqlarni, guldastalarni nogiron o'rtoqlarimizga taqdim qilmoqchimiz. Zora, oz bo'lsa ham ularni kemtik ko'ngillarini ko'tarishga o'z hissamizni qo'shsak.

Biz istardikki, butun dunyoda birorta ham nogiron bola bo'lmasin!

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
Nuriddin Nosirov nomli 273 - maktabning
5- «V», 6- «B» sinf o'quvchilari.

Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi, Yangiobod mahallasida Qulmat aka Rahimqulov va xonadon bekasi Ro'zigul opaning oilasi istiqomat qiladi. Ular olti nafar farzandlarini oq yuvib, oq taraydilar. O'qishlari, izlanishlari uchun barcha sharoitni yaratib berganlar. Biroq, farzandlaridan uch nafarining imkoniyati cheklangan.

Ulardan biri, o'n uch yoshli Go'zalxon ham o'ta qiziquvchan, ko'proq bilim olishga intilib yashaydi. Kashtachilik, to'quvchilik, tasviriy san'at uning eng yaxshi ko'rgan

mashg'ulotlaridan biri.

Ayniqsa, Go'zalxonning chizgan rasmlarini tomosha qilar ekansiz, uning iqtidoriga tan



bermay ilojingiz yo'q. O'zi nogiron bo'lsa-da, ammo hayotga, o'qishga, o'rganishga intiladi. Bor imkoniyatini ishga soladi.

Go'zalxon chizmoqchi bo'lgan rasmlarini avvalo xayolida aks ettiradi. So'ngra, qog'ozga tushiradi. Shuning uchun ham uning chizgilari jonli va yoqimlidir. Go'zalxon Rahimqulova 2002 yilda bo'lib o'tgan nogiron

musavvir bolalarning «Maftunkor ranglar jilosi» ko'rik-tanlovida ishtirok etdi. Tuman va viloyat bosqichlarida uning chizgilari g'olib


GO'ZALLIKKA OSHINO GO'ZALXON

deb topildi va Respublika bosqichiga yo'llanma oldi. Jajjigina qizaloqning chizgan rasmlari Respublika bosqichida ham o'z o'rnini topdi. U uchunchi o'rinni egallab, rangli televizor sohibasi bo'ldi.


Bundan quvongan Go'zalxon, albatta atrof dagilar ishonchini oqlash uchun yanada ko'proq izlanishi, o'rganishi

kerakligini his qildi.

Go'zalxonning qilayotgan mehnatini kuzatar ekanman, uning mustahkam irodasiga tasannolar aytgim keldi. Zero, to'rt muchasi sog'-salomat, baquvvat ayrim o'quvchilar bo'sh vaqtlarini bekorchi ishlar bilan o'tkazib yuborishyapti. Mana shunday



Botayotgan quyoshni kuzatishni yaxshi ko'raman.



Bobomning qo'li gul.

tengdoshingiz Go'zalxondan o'rnak oling, deyman.

Malika NURIMETOVA,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi «Bolalar va o'smirlar ijodkorlik markazi»ning «Tasviriy san'at» to'garagi rahbari.

o'quvchilarga qarata, qayta-qayta



Muhokama uchun mavzu

Dilorom

ABDULLAYEVA,

9 - sinf o'quvchisi:

-Menimcha ham maktablarimiz 9 yillik bo'lgani ma'qul. Chunki, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish hammamizga ham nasib etavermaydi. 9 - sinfni tamomlab kollej va litseylarda o'qisak, bilimimiz yanada oshadi. Bundan tashqari, biror mutaxassislikni egallaymiz. Kelasi yili o'z mutaxassisligimiz bo'yicha puxta tayyorlanib, oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Rahmatjon USMONOV,

9 - sinf o'quvchisi:

-Maktablar 11 yillik

bo'lgani ma'qul. Nega desangiz, 9-sinfni tamomlab, oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyatiga ega bo'lmaymiz. Oliygozlarga esa 11-sinfni bitirganlarni olishadi. Kollejni bitirgan bilan ish topish muammosi ham turibdi. Kollej diplomi bilan hamma joyga ishga olishavermaydi.

Alisher

ISOMIDDINOV:

-Men maktablar 11 yillik bo'lishi tarafdoriman. Chunki, o'quvchi 9 yil maktabda to'la bilim ololmaydi. Yana bilim olishi uchun esa 3 yil biron bir litsey yoki kollejda o'qishi kerak. Bunday holatda yana

Ma'lumki, o'rta ta'lim maktablari 11 yillik o'quv tizimidan 9 yillik o'quv tizimiga o'tmoqda. Bu esa maktab o'quvchilari va o'qituvchilari orasida bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Kimdir ijobiy fikrda bo'lsa, kimdir salbiy...

Mening fikrimcha, o'rta ta'lim maktablarida o'quv tizimi 9 yillik bo'lgani ma'qul. Sababi, o'quvchilar 11 yillik maktabni bitirib, oliy o'quv yurtlariga kirishga harakat qilishadi. Lekin ularning bir qismigina oliy o'quv yurtlariga kira oladi. Kira olmagan o'quvchilar esa qo'lida hech qanday ma'lumot bo'lmagach, ishsizlar safidan joy olishadi. 9 yillik ta'lim tizimida o'qigan o'quvchilarning qo'lida hunari bo'ladi. Chunki ular maktabni tugatgach, o'zlari qiziqqan soha bo'yicha litsey, kollejlarda o'qiydilar. Albatta, bu mening shaxsiy fikrim. Xo'sh, bu xususda tengdoshlarim, ustozlarimizning fikrlari qanday ekan?

bir yil vaqtimizni yo'qotamiz.

Men bunga qarshiman.

Maktablar 9 yil bo'lib chala bilim

olgandan ko'ra, 11 yil bo'lib to'liq

bilim olgan ma'qul.

Yulduz SAIDAMINOVA,

o'qituvchi:

maktablar 11 yillik bo'lgani

ma'qul. Sababi,

maktablar 9 yillik

bo'lgandan keyin bilim

berish sifati va javobgarlik

hissi tushib ketadi. Agar

maktablar 11 yillik bo'lsa,

o'qituvchilar zimmasida

o'quvchilarni oliy o'quv

yurtiga tayyorlash kerak,

degan mas'uliyat bo'ladi.

Hozir esa 9 yillik ta'lim

bo'lgani uchun ham sifat

darajasi tushib ketgan.

Agar biz komil farzandlar

tarbiyalashni istasak,

ulardan hech narsani

ayamasligimiz kerak.

Ayniqsa, bilimimizni...

Muyassar

XOLMURODOVA,

Respublika o'quvchilar

saroyi, uslubiy bo'lim

boshlig'i:

sohasidagi islohotlarga ko'ra

o'rta maktablarning 9 yillik

bo'lishi menimcha juda yaxshi.

Sababi, 9- sinfni bitirgan

o'quvchi o'z iqtidori va

qiziqishiga qarab

akademik

litsey va kollejlarda o'qishni

davom ettiradi. Attestat olish

bilan birga hunarli ham bo'lib

yetishadi. Mustaqil hayotga

o'rganadi.

- Ta'lim

davom ettiradi. Attestat olish

bilan birga hunarli ham bo'lib

yetishadi. Mustaqil hayotga

o'rganadi.

Shu bilan birga yuqori

sinf o'quvchilari o'z

yo'nalishlari va albatta

qiziqishlariga qarab

to'garaklarimizga a'zo

bo'lishlari mumkin. Shu

tariqa o'quvchi bo'sh

vaqtning qadriga yetishni

o'rganadi, undan unumli

foydalanishga harakat

qiladi.

Go'zalxon

NASRIDINOVA,

«O'qituvchi»

nashriyatining

yetakchi muharriri:

- O'rta maktablarning 9

yillik tizimga o'tishi hozirgi

davr talabi, deb

hisoblayman. Chunki 11 yillik tizimda bitiruvchi sinf o'quvchilariga barcha fanlar bo'yicha yagona o'quv dasturi asosida bir xil ta'lim beriladi.

9 yillik tizimda esa o'quvchilarning ko'proq qaysi fanlarga qiziqishi va iqtidori yoki biror kasbga qobiliyatini e'tiborga olgan holda, bilimdon va iqtidorli o'quvchilar keyingi bosqichlarda o'qishni akademik litseylarda davom ettiradilar.

Biror kasbga qobiliyatli bolalar esa kasb-hunar kollejlarda ta'lim oladilar.

Akademik litseylarda o'quvchilar chuqurlashtirilgan holda bilim oladilar. Bu esa ularni oliy ta'limga tayyorlaydi. Kasb-hunar kollejlarda ta'lim amaliyot bilan birgalikda olib boriladi. Bu bilan o'quvchi tanlagan kasbini mukammal egallashga zamin yaratadi.

Mana, ayrim o'quvchi va o'qituvchilarning shaxsiy fikrlari bilan ham tanishdik. Biz bu fikrlar orqali biror-bir ta'lim tizimini qoralash yoki oqlash fikridan yiroqmiz. Sizlarni ham o'ylashga, fikrlashga da'vat etmoqchimiz, xolos. Bu borada sizning fikringiz qanday, aziz tengdoshim?

Umida TOG'AYEVA,

Respublika Nafis san'at

litseyining 9- "A" sinf

o'quvchisi.

MAKTABLAR QANDAY BO'LGANI MA'QUL?

«Tong yulduzi»
gazetasiga



Shohida maktabga yetar yetmas, qo'ng'iroq chalindi. U sinfga kirar ekan, dugonalarining unga g'alati qarab turishganini sezdi. Shohida bu sinfga kelganiga salkam besh oy bo'ldi. Avvaliga o'rganolmay qiynaldi. Sinf dosh qizlar bilan chiqishib ketishi qiyin bo'ldi.

Aslida Shohida yomon qiz emas,

b i r o z

rahbari qizlarni biroz

koyigandek bo'ldi. Kasalxonaga borib,

Shohidaning holidan xabar oling, dedi.

Qizlar ham o'z ishlaridan qattiq

uyalishdi. Sinf doshlariga esa «tezroq

tuzal, sensiz zerikib qolamiz» deyishdi.

Sinf doshlarining iliq munosabatlaridan

xursand bo'lgan Shohidaning tezroq

maktabiga, sinf doshlari davrasiga

qaytgisi keldi.

Shaxnoza SIDDIQOVA,

Farg'ona viloyati, Rishton

tumanidagi 1- maktabning

II- «A» sinf o'quvchisi.

Shohida esa yakkalanib qolgandi.

Tanaffus vaqtida ham kitob o'qishdan boshqa ishi yo'q edi. Hech kim u bilan gaplashmas, sirlashmasdi. Shohidaning maktabga borgisi kelmay qoldi.

Qish kunlarining birida u betob bo'lib, kasalxonaga tushdi. Bundan xabar topgan sinf

SINF DOSHLAR DAVRASI

kamgaproq, xolos. Qizlar esa uni manmanlikka yo'yishadi. Kecha sinf rahbari Shohidani hammaga o'rnak qilib ko'rsatdi. A'lochiligi-yu odobini yana bir bor maqtab o'tdi. Shunday keyin qizlarning unga munosabati yanada yomonlashdi.

Sayyora ismli qiz Shohidadan tashqari hamma qizlarni tug'ilgan kuniga taklif qildi. Darsdan so'ng qizlar chug'urlashib tug'ilgan kunga ketishdi. Shohida esa yakkalanib qolgandi.

QO'SHALOQ BAYRAM MUBORAK!

-Qizim, bugun qanday kun ekanligini bilasanmi? - deb so'radilar oyijonim ertalab.

-Ha, albatta O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun, - deb javob berdim men.

Shunda ular menga Konstitutsiya haqida ancha narsalarni so'zlab berdilar. Ularning so'zlarini maroq bilan tingladim...

Mana, Konstitutsiyamiz qabul qilinganiga ham o'n yil bo'libdi. Qayerga bormang, hamma joyda bayram shukhi kezib yuribdi. Xalqimiz bu shodiyonani katta bayram qilyapti. U o'zi tanlagan yo'lning to'g'ri ekanligiga, vatandoshlari sog'-omon, yurti esa tinchligiga shukronalar

aytyapti. Buni qarangki, quvonch bir kelsa qo'shaloq kelar ekan. Kechagina musulmonlarning muqaddas bayrami - Iydi ramazon hayitini bayram qilgandik. Uning Konstitutsiya kuniga to'g'ri kelishi esa chin ma'noda baxtdir. Ko'rdingizmi, aziz tengdoshim! Bejiz bizning yurtga nisbatan «Allohnig nazari tushgan» iborasi qo'llanilmaydi. Bizning yurtga faqat ana shunday quvonchli bayramlar yarashadi.

Barchangizni ushbu aziz va muqaddas ayyomlar bilan chin dildan muborakbod etaman.

Nigora ESHIMOVA

Toshkentdagi arab tiliga

ixtisoslashgan 29 - maktab

o'quvchisi.

1-topshiriq

AZIZ O'QUYCHILARI

Biz bilan birga «Iqtisodiy bilim asoslarini» hisoblanadi.

o'rganishni boshlaganingizga ham ancha yillar bo'lib qoldi. Birinchilardan bo'lib o'rganishni boshlagan akalaringiz va opalaringiz, hozirda oliygohlarda iqtisodni chuqur, o'rganish bilan shug'ullanishmoqda. Mamlakatimizning hamma maktablarida qo'llanilayotgan bizning muallifligimizdagi «Iqtisodiy bilim asoslari» darsliklari ularning taklif va mulohazalarini hisobga olgan holda yaratib, hukumatimiz qarori bilan barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilmoqda. «Iqtisodiyot» fani ham maktab o'quv rejasida o'z o'rnini topdi. Albatta bu amalga oshirilayotgan ishlar, sizlarga «Iqtisodiy bilim va tadbirkorlik asoslarini» o'rganishingiz uchun dastlabki qadam (bosqich) bo'lib

Endi, sizlarga o'rgangan bilim va malakalaringizni amaliyotda, ya'ni hayotda qanday qo'llash kerakligi to'g'risida amaliy yordam bermoqchimiz.

Beriladigan materiallar oldingi «sirtqi konkurs» materiallaridan birmuncha farq qiladi. Bugungi kunda sizda iqtisodiy bilimlarni mustaqil egallashingiz uchun barcha shart-sharoitlar mavjud.

E'lon qilingan topshiriqlarga sizlarning bergan javoblaringiz va takliflaringizni keyingi beriladigan mavzularda hisobga olamiz. Shuning uchun topshiriqlarga javob berish bilan birga o'z taklif va mulohazalaringizni ham berib yuboring. Biz bu takliflarni hisobga olib, topshiriqlarni yanada takomillashtirib boramiz.

Mualliflar:
E. SARIQOV, B. HAYDAROV,
Q. QAMBAROV



Oila budjeti

Oiladagilarning yaxshi yashashi va turmush kechirishi uchun oilaning har-xil daromad manbalari bo'lishi lozim.

Oila a'zolarining muayyan davr mobaynida (kun, oy, yil) turli manbalardan topgan pul va natural ko'rinisdagi daromadlariga «oila daromadlari», oila a'zolarining va oilaning muayyan davrda sarflagan harajatlariga esa «oila harajatlari» deyiladi.

Muayyan bir davrga mo'ljallangan oila daromadlari va harajatlari hisob-kitobiga «oila budjeti» deb ataladi.

Oila daromadlarini rejali sarflash, kundalik ehtiyoj mollari va buyumlariga mablag' ajratish, kelajakda sotib olish uchun rejalashtirilgan narsalarga pul yig'ish malakasiga ega bo'lish, oila iqtisodiyotining yaxshilanishiga, aholining va jamiyatning turmush sharoitining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1) Oilangiz iqtisodiyoti baquvvatmi yoki nochori?

2) Siz bu haqda jiddiy o'ylab ko'rganmisiz?

Soddaroq bo'lishi uchun shartli ravishda «oylik budjet» tuzamiz.

Sizlar olgan iqtisodiy bilimlaringizga asoslangan holda quyidagi topshiriqlarni bajaring va tadqiqotingizni boshlang.

1. Oila a'zolaringizni bir oylik daromadlarini aniqlang va ro'yxatini tuzing.

1-jadval

Nomi	Turi	Miqdori (so'm)
1. Ota	ish haqi	
2. Ona	ish haqi	
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		
8.		
Jami	x	?

3. Ota-onangizdan so'rab-surishtirib, oilangizning bir oylik oziq-ovqatlar, jihozlar va boshqa uy-ehtiyoj mollariga bo'lgan talabini aniqlang, ro'yxatini tuzing va umumlashtiring.

3-jadval

Oila harajatlari	Miqdori (so'm)
1. un (non)	
2. yog'	
3. sabzavot	
4. guruch	
5. o'tin	
6.	
7.	
8.	
9.	
10. jihozlar:	1) 2) 3)
11. uy ro'zg'or buyumlari	1) 2) 3)
Jami	?

5. Oilaning shu oyda mo'ljallanayotgan boshqa harajatlari va jamg'arma chegirmasi ro'yxatini tuzing, hisoblang.

5-jadval

Reja	Talab qilinadigan taxminiy mablag' (so'm)
1. Safar harajatlari	
2. Mehmondorchilik	
3. To'ylar	
4.	
5.	
6.	
7.	
8. Jamg'arish uchun	
Jami	

2. Oilangiz a'zolarining bir oylik harajatlarini aniqlang. (oilangiz har bir a'zosining bir oylik sarflarini so'rab-surishtiring, ro'yxatini tuzing yoki o'zlari yaxshilab o'ylab ro'yxat tuzib berishsin).

2-jadval

Harajatlar nomi	Miqdori (so'm)
1. Ota:	1) 2) 3)
2. Ona:	1) 2) 3)
3. Aka (opa)	
4. Uka (singil)	
5.	
6.	
Jami	?

4. Oilaning bir oylik xizmatlarga va to'lovlarga sarflanadigan mablag'larining miqdorini aniqlang va ro'yxatini tuzing.

4-jadval

Xizmatlar va to'lovlar	Miqdori (so'm)
1. elektr energiya	
2. transport	
3. kommunal xizmatlar	
4. sog'liqni saqlash	
5. soliq	
6. dam olish	
7.	
8.	
9.	
Jami	

6. O'zingizda mavjud bo'lgan harajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtiring va jamlang.

6-jadval

Harajatlar	Miqdori (so'm)
1. Ota	
2. Ona	
3. Aka	
4.	
5.	
6.	
7. Oziq-ovqatlar va jihozlar harajatlari	
8. Xizmatlar va to'lovlar	
9. Boshqa harajatlar va jamg'arish uchun	
Jami	

7. Daromadlar va harajatlarni taqqoslang, oila budjetini tuzing (so'm hisobida)

7-jadval

Daromadlar, so'm	Harajatlar, so'm
Jami:	

8. Xulosa qiling.

Albatta harajatlar qismi katta mablag' talab qilishi mumkin. Endi siz o'z qobiliyatingizni ko'rsatishingiz kerak.

Sizning bildirgan fikrlaringiz barcha oila a'zolaringizning ehtiyojiga mos kelsin. Harajatlar ro'yxatini birma-bir o'rganing, oila a'zolaringizning mavjud sharoitlarini o'rgangan holda ular bilan maslahatlashing, qaysi harajatlar eng zarur, qaysilari nozarur, qaysilarini kelgusi davrga qoldirib turish mumkin.

Maslahatlashib qaytadan oila a'zolaringizning harajatlari ro'yxatiga o'zgarishlar kiriting va jamlang.

8-jadval

Harajatlar (oilal a'zolarining nomlari bo'yicha)	Miqdori (so'm)
Ota	
Ona	
Aka	
Uka	
Jami	

10. Oila daromadlari yetishmasa, «oila budjetida» kamomad bo'lsa, endi daromad manbalarini qaytadan o'rganib chiqing.

- 1) Qaysi keraksiz mulk yoki buyumni sotish mumkin?
- 2) Qaysi manbalardan qo'shimcha pul mablag'i olish mumkin? (biron-bir mulkingizni ijaraga berish, qo'shniidan vaqtincha qarz olish, kredit,... ota-onangiz bilan maslahat qiling.)
- 3) Xulosa yozing.
- 4) Daromadlar jadvalini yangidan tuzing.

10-jadval

Nomi	Turi	Miqdori (so'm)
1. Ota	ish haqi	
2. Ona	ish haqi	
3.		
4.		
5.		
6.		
7.		
8.		
Jami	x	?

13. Oila kelajakda daromadlarini ko'paytirish uchun nima qilishi kerak? (Mavjud imkoniyatlaringizni aniqlang va fikr bildiring.)

14. Yuqorida bajargan amaliy tadqiqotingiz siz va oilangiz uchun foydali bo'ldimi? Oila a'zolaringizning sizning tadqiqotingizga fikri qanday? Xulosa qiling. Xulosa qilganda oiladagilarning tadqiqotingizga bo'lgan munosabatlarini aniq ifodalang. Bu yerda asosiy maqsad sizning iqtisodiy bilimingizga ularning munosabatlari qandayligi: Ba'zilari norozi bo'ladi, ba'zilar rozi bo'ladi, asosiysi sizni qaror qabul qilish qobiliyatingiz.

Tahririyatdan:

Qadrdon yosh iqtisodchilar! Topshiriqlarni gazeta varaqasiga to'ldirib, tahririyatimizga jo'nating. Topshiriq olish yangi yilda ham davom etadi. G'oliblarga quyidagi sovg'alar beriladi:

1-o'rin: Televizor.

2-o'rin: Velosiped.

3-o'rin: Magnitofon.

Yuqori ball to'plaganlarga:

O'n dona pleyyer;

Iqtisodga oid yangi kitoblar;

«Tong yulduzi» gazetasining faxriy yorlig'i beriladi.

Shoshiling, g'oliblarni Navro'z bayrami arafasida

«Tong yulduzi» gazetasi tahririyatida kutamiz.

9. Oila budjetini qaytadan tuzing.

9-jadval

Daromadlar, so'm	Harajatlar, so'm
Jami:	

11. Oila budjetida yana ham kamomad bo'lsa, kimning harajatlarini, qaysilarni, qanchaga qisqartirish kerak? Fikr bildiring, yangi ro'yxatni tuzing va asoslang.

11-jadval

Harajatlar	Miqdori (so'm)
1. ota	
2. ona	
3. aka	
4.	
5.	
6.	
7. oziq-ovqatlar va jihozlar harajatlari	
8. xizmatlar va to'lovlar	
9. Boshqa harajatlar va jamg'arish uchun	
Jami	

Fikr va mulohazalaringizni yozma ravishda asoslab bering. Oila a'zolaringizni fikrini va roziligini yozma bayon qiling.

12. Oila budjetini tuzing va xulosa qiling (agarda oxirgi fikr bildirishingizda ham budjetda kamomad bo'lsa, oilangiz qanday qilib bartaraf qildi), yozma bayon qiling.

12-jadval

Daromadlar, so'm	Harajatlar, so'm
Jami:	

15. Qaysi mavzudagi, qanday masalalar sizni qiziqtiradi?

2002 yil — Qariyalarni qadrlash yili

USTOZIMGA ATALGAN GULLAR

gashtini suryapman.

Qariyalarni qadrlash yili munosabati bilan bizni o'zimiz o'qigan maktabga taklif qilishdi. Aziz mehmonlar qatorida menga bolaligimda ko'p yillar matematika fanidan saboq bergan, hayotimning boshlanishida to'g'ri yo'l ko'rsatgan, hayotda izlanishni, mashaqqatdan qo'rqmaslikni, o'rgatgan aziz va mehribon ustozim Bekajon opa Yo'ldosheva bor edilar.

Biz opa deb chaqirar edik, O'sha g'amxo'r o'qituvchini. Tanaffusda chopishar edik, Maktab edi shodlik chamani... Ha, Bekajon opa bolalarni

shunchalik sevar edilarki, darsdan so'ng ham biz bilan mashg'ulotlar o'tkazar edilar. Mana endi u kishi o'qitgan o'quvchilarni ham o'zlari bilan birga qariyalar qatorida maktabga taklif qilishibdi. Yoshiga yosh qo'shilib, chehrasidan nur yog'ilgan ustozimning o'z shogirdlari-bugungi qariyalar safida o'tirishi havasimni keltirdi. Oilada ham baxti barkamol, 6 farzand, 22 nevara, 13 evarali, xalq maorifi a'lochisi Bekajon opaga ko'zimdagi quvonch yoshlari bilan ta'zim qildim. Menga taqdim etilgan guldastalarni aziz ustozim, 85 yoshli muqaddas murabbiyimga tutdim. Menga

berilgan gullar, menga aytilgan iliq gaplar ham aziz ustozimga atalgandir, axir.. Shu kuni Bekajon opamiz guldastalarga ko'milib ketdilar. Hammaga ham shunday mehr va sadoqatga,

minnatdorchilik guldastalariga sazovor bo'lsin.

Axtam

MUXAMMEDOV,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon shahri.



Sochlarimga qirov qo'nib nafaqa yoshiga yetdim. Qariyb, 45 yil el-yurtimga xizmat qildim. Maktabda matematika fanini juda yaxshi ko'rganim uchun xalq xo'jaligi institutini tamomladim, moliyachi bo'ldim va umrimni shu kasbga bag'ishladim. Hozir besh qizim, 13 nabiram ardog'ida qarilik



«ZULFIYA» NING QIZLARI

Malika Rahmonbekova gazetamizning doimiy muxlisi. Siz uning ertak va hikoyalarini ko'p o'qigansiz.

Ko'pgina ko'rik-tanlovlarda o'z ijod namunalari bilan qatnashib, faxrli o'rinlarni egallashga musharraf bo'lgan. Malikaning ertaklari boshlang'ich sinf darsliklariga ham kiritildi.

Mustaqillik bayrami bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentini tabriklagani uchun Prezidentimiz ham Malikani tabrik xati va sovg'alar bilan mukofotladi.

Quyida Malikaning yangi ertaklarini siz gazetxonlarga tavsiya etamiz.



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Osmonu falakda oppoq bulutlar orasida kichkinagina Qorparcha bo'lgan ekan. U mitti bo'lishiga qaramay, juda mahmadona ekan.

Bulutlar orasi qorparchalarga to'lib ketibdi. Haligi jajji Qorparcha onasiga harxasha qilibdi:

-Qachongacha biz bu uyda diqqinafas bo'lib o'tiraveramiz?

-Bolajonim - debdi onasi Qorparchaga, -tez kunlarda hammamiz birga yerga tushamiz. Hamma yoqni qor bilan qoplaymiz, odamlar bizni ko'rib, quvonadilar.

-Voy, odamlar bizni ko'rib sevinishsa nega biz u yerga tezroq tusha qolmaymiz, -deya shoshib Qorparcha bulut orasidan chopqillaganicha chiqib yerga qarabdi va bir sakrab tusha boshlabdi.

-H o y m a h m a d o n a, orqangga qayt, -debdi onasi. Qorparcha pastlab ketayotgan ekan, ona bechora uning

orqasidan qarab nima deyishini bilmay qolibdi.

Endi Qorparchaning nima bo'lganini eshiting.

Qorparcha men birinchi bo'lib yerga tushib, odamlarni ko'raman, ular meni ko'rib juda quvonishadi, -deb shoshilibdi. Shu payt quyosh bulutlar orasidan mo'ralabdi. Qorparchaning ko'zlari quyosh

Qorparchani suv tomchisiga aylanib, qaldirg'och qanotida kelayotganini ko'ribdi va darrov uni avaylab bag'riga bosibdi, haloskor Qaldirg'ochga rahmat aytibdi. Sovuq bulut orasiga olib k i r i b d i .

Qorparcha tezda o'ziga kelibdi.

QORPARCHA

nuridan qamashibdi.

Sekin-asta issiqqa b a r d o s h berolmay eriy boshlabdi.

-O n a j o n, onajon! -deb yig'labdi. Lekin onasi uzoqda qolganini eslabdi.

Tomchiga aylanayotgan Qorparchani ko'rgan bir Qaldirg'och uni qutqazib qolibdi. Qanotini tutib tomchini patlari orasida avaylab bulut tomon ko'tarilibdi. Bulut orasidan ko'zlari yoshlanib turgan onasi

U yana avvalgidek Qorparchaga aylanibdi.

Ko'p o'tmay, b u l u t qorparchalarni yer tomonga to'ka boshlabdi, shunda eng kichkina bizning qorparchamiz

onasi bag'rida yerga asta-sekin tusha boshlabdi. U shunchalar sevinibdiki:

-Onajon, odamlar bizni ko'rib sevinishadi-a? -deb so'rabdi. Onasi esa:

-Ha, bolajonim, ular bizni kutishyapti, ko'rib juda sevinishadi. Biz qorparchalari insonlarga yaxshilik olib



boryapmiz. Biz qancha ko'p yog'sak, ona yer yumshoq qor ko'rpada yaxshi dam oladi. Bahorda erib ketsak, yerlar to'yib suv ichadi, namlanadi, hosil mo'l bo'ladi, -debdi onasi. Qorparcha esa onasi bag'rida asta-sekin yerga qo'nibdi. Ular yerga tushganlarida tun ekan. Qani odamlar, nega ular ko'rinishmayapti, -debdi Qorparcha.

-Hozir tun, yaqinda tong otadi, -deb javob beribdi onasi.

Tong otibdi, oppoq qorni ko'rgan odamlar juda sevinibdi. Ular bir-birlarini birinchi qor bilan tabriklashibdi. Bizning kichkina Qorparcha esa hamma qorparchalar bilan birga bahorgacha yer bag'rida mazza qilib yotibdi.

Malika
RAHMONBEKOVA.

SAODATNI SOG'INDIK

Mahallamizda Saodat degan o'n yoshli qiz bor. Uni hamma yaxshi ko'radi. Ko'p narsani biladi. Barcha savollarimizga to'liq va aniq qilib javob beradi. Ammo biz bilan birgalashib maktabga borolmaydi. Chunki uning o'ng qo'li va bir oyog'i yaxshi ishlamaydi.

Shunday bo'lsa-da, u o'qishni, dars tayyorlashni juda yaxshi ko'radi. Har kuni uylariga o'qituvchi kelib, bilim beradi. Ustozidan olgan bilimni esa bizga tushuntirishga harakat qiladi.

Uni xoh ko'chada, xoh uyida ko'rganimizda, hamisha qo'lida kitob.

Biz ko'chada chopib-chopib o'ynasak, u bir chekkada o'ziga yoqqan kitobni o'qib o'tiradi.

Bir kuni Saodat mahallamizda ko'rinmay qoldi. Eshitsak, qo'shni bola To'lqin uni mazah qilibdi. Qo'lidagi kitobni tortib olib, uzoqqa otib yuboribdi. Bundan qattiq xafa bo'lgan Saodat ko'chaga chiqmay qo'yibdi.

Aziz tengdoshlar! Ayting-chi, To'lqinning shu ishi yaxshimi? Bu bilan u nimaga erishdi? Orangizda To'lqinga o'xshagan dilozor bolalar bormi? Bor bo'lsa ularga qarshi qanday chora ko'rasiz?

Iskandar ODILOV,
Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 225- maktab
o'quvchisi.





Mustaqil Respublikamiz xalq xo'jaligi tarmoqlari amalga oshirayotgan islohotlar va yaratilayotgan shart-sharoitlar tufayli barqaror rivojlanib bormoqda. Shu asnoda xalqimizning mehnat samaradorligi oshmoqda, el-yurtimiz boyligi ko'paymoqda, turmush tarzi, yashash darajasi kun sayin yuksalmoqda.

Erishilgan yutuqlarimiz mevasini asrash, ularni yanada ko'paytirishga munosib hissa qo'shish shu yurtda yashab turgan barcha fuqarolarimizning muqaddas burchidir. Bu borada, albatta yong'in xavfsizligi xizmatining zimmasida ham katta mas'uliyat yotadi. Ushbu vazifalarni hayotga tadbiiq qilish, yong'in xavfsizligini ta'minlash, bu boradagi har qanday nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etish va mehnat samaradorligini oshirish maqsadida mana bir necha yildirki amalga oshirib kelinayotgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda soha xodimlari tomonidan Respublikada «Yong'in xavfsizligi oyligi»ni o'tkazish odat tusiga kirmoqda. Bunda o'z-o'zidan erishilayotgan yutuqlar sarasi sifatida sodir bo'layotgan yong'inlar sonining keskin kamayishi va ularda insonlarning jabrlanish hollarining oldi olinishi, asosiysi, fuqarolarda yong'in oqibatlaridan saqlanish borasidagi tushunchalarning ortishini mamnuniyat bilan tilga olish mumkin.

Ma'lumki, har gal o'tkazilayotgan ushbu tadbirlar aynan kuz faslining oxiri va qish fasli boshlarida o'tkazilmoqda. Soha xodimlari bu davrga kelib haroratning keskin pasayishini, qor-qirovli kunlarning boshlanishi fuqarolarda isitish moslamalarini ishlatishga bo'lgan ehtiyojni birmuncha ortishini, bu bilan fuqarolarimiz tomonidan qo'lbola yasalgan, nosoz va xavfsizlik tomonlama ishlatishga mutloq yaroqsiz bo'lsa-da, isitish moslamalaridan foydalana boshlashlarini nazardan qoldirishmagan.

Ha, agar yil davomida sodir bo'lgan yong'inlar tahliliga nazar tashlasak, shu narsaga amin bo'lamizki, yong'inlarning 70 foizdan ko'prog'i fuqarolar turar joylarida sodir bo'lmoqda, shu davrda yong'inlarning ham 40-50

foizini isitish pechlaridan sodir bo'lgan yong'inlar tashkil qiladi.

Yong'in xavfsizligi boshqarmasi xodimlari oylik o'tkazish boshlangan dastlabki kunlardan o'xonadonlar, korxonalar va tashkilotlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash, aholi o'rtasida, ayniqsa bolalar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarni

Ochig'ini aytganda, Respublikamizda ham ayrim kishilar bir necha yillardan buyon yangi yil arafasida kuchli ovoz chiqaruvchi o'yinchoq vositalari (qarsildoq)ni sotish bilan shug'ullanib kelishmoqda. Biroq, yuqorida aytganimizdek, tajribalar mazkur o'yinchoqlarning bayram tantanalarini yanada zavqli

bevaqt to'kilgan ko'z yoshi, bir umrga mayib-majruh bo'lib qolayotgan go'daklarning chekkan ohu nolalarining uvoli tutmaydimi ularni?

Yaxshiyam-ki Ichki ishlar idoralarining xodimlari mana shunday salbiy holatlarning oldini olish borasida aniq rejalar bilan ish olib borishmoqda. Aks holda

TO'RTTA BARMOG'IDAN AJRALGAN BOLA

bartaraf etish uchun keng ko'lamdagi targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishmoqda. Aholi bilan o'tkazilayotgan uchrashuvlarda ko'rgazmali qurollar, o't o'chirish texnikalarining namoyish etilishi va bu ishda maxsus targ'ibot avtobusidan foydalanilayotganligi uchrashuvlar samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Yong'inlarning oldini olishda, ayniqsa yong'in xavfsizligini ta'minlashda targ'ibot va tashviqot ishlarini to'g'ri tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

Respublikamizda yilning o'tgan davrida 12000 dan ortiq yong'in sodir bo'lgan bo'lsa, ushbu yong'inlarda 838 kishi turli darajadagi kuyish tan jarohati olgan, 131 kishi bevaqt hayotdan ko'z yumgan.

Kuz kunlarida sodir bo'lgan yong'inlarning tahlili shuni ko'rsatmoqda-ki, aksariyat yong'inlar xazon va chiqindilarni yoqish natijasida yuzaga kelmoqda va bu narsa yong'in xavfsizligi xodimlarini tashvishga solmoqda.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, birgina poytaxtimizda yilning o'tgan davrida 1590 ta yong'in sodir bo'lgan bo'lsa, ana shundan 743 tasi xazon va chiqindilarni yoqish natijasida sodir bo'lgan.

Har kuni erta tong farroshlarimiz to'kilgan barglarni supurib, to'da-to'da qilib qo'yishadi. To'planib qolgan barglarni va chiqindilarni o'z vaqtida olib ketmaslik esa turli noxush holatlarni yuzaga keltirmoqda. Kimlarningdir e'tiborsizligi, loqaydligi yoki bolalarning sho'xliklari sabab bo'lib, bu chiqindilar yoqib yuborilmoqda. Xazonlarning ustki qismi tez yonib tugagani bilan uning ostidagi ho'l barglar yonmasdan o'zidan achchiq tutunni tevarak atrofga tarqatadi. Kuzning yoqimli havosi o'rnini achchiq qo'llansa tutun egallaydi.

Yong'inlarning oldini olish faqatgina soha xodimlarininggina emas, balki barchamizning vazifamiz ekanligini unutmasligimiz lozim.

Bola barchamiz uchun aziz. Ularni xursand qilish uchun turli xildagi o'yinchoqlarni sotib olamiz. Biroq, ayrim o'yinchoqlar ham borki, ular bolalarga zavqu shavq bag'ishlash bilan birga ularning sog'lig'iga ham jiddiy xavf-xatar tug'diradi. Bulardan biri porox vositasida kuchli ovoz chiqaruvchi qarsildoqlar bo'lib, ular asosan bayramlar arafasida bozorlarda paydo bo'lib qoladi.

o'tkazishga emas, balki aksincha kishilarning asabiga va sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazib, bayramga salbiy ta'sir yetkazishini ham ko'rsatmoqda.

Yong'in xavfsizligi xizmati xodimlarining ma'lumotlariga ko'ra 2000 yilda pirotexnika vositalaridan foydalanishda ehtiyot choralarini ko'rmaganligi uchun 30 dan ortiq bola turli xildagi kuyish tan jarohatini olishgan. 2001 yilda ham bunday salbiy holatlar ro'yxatga olindi. Bozorlarimizda pirotexnika vositalari bilan savdo qilayotgan insonlarni ko'rib hayron qolasiz. Axir ularning ham farzandlari bor-ku! Ular birovlarining jondan aziz farzandlari sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazish yo'li bilan topilgan daromadlarini o'z farzandlariga ishlatishadi. Boshqalar baxtsizligi evaziga topilgan boylikda qut-baraka bo'larmikan? O'zgalarning

xursandchilik sababi bo'lgan bu qarsildoqlar qanchadan-qancha oilalar boshiga tuganmas kulfat va ofat yog'dirgan bo'lar edi.

Bir necha misollarni keltirmoqchimiz: Yunusobod tumani Ahmad Donish ko'chasida yashovchi 12 yoshli Baxtiyor Karimov qo'lbola yasalgan portlovchi vositani otadi, vosita portlamay qoladi, yerdan yana qaytadan oladi va yana otaman deganda paqildoq qo'lida portlaydi. Natijada qo'lining 4 ta barmog'i jarohatlanadi va bir umrga qo'lsiz nogiron bo'lib qoladi.

Bu kabi misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bundan siz aziz bolajonlar tegishli xulosa chiqarasiz degan umiddamiz.

Kezi kelganda shuni aytish lozim-ki, agar sizlar ota-onangiz bergan mablag'ni faqat yaxshi ishlar va yaxshi tadbirlarga sarf qilsangiz,

YONG'IN XAVFSIZLIGI OYLIGI

«Yong'in xavfsizligi oyligi» kunlarida hamma joyda bo'lgani kabi Mirobod tumanidagi Shorasul Zunnunov nomli maktabda ham ko'plab tadbirlar bo'lib o'tyapti. 7-«B» sinf o'quvchilari ishtirok etgan ushbu tadbirda maktab direktori M.Radjabova, o'qituvchi va o'quvchilar, shu bilan birga Yong'in xavfsizligi xodimlari, qutqaruv xizmati xodimlari ishtirok etishdi. Tadbirda Yong'inni oldini olish borasida sinflararo chiqarilgan gazetalar namoyishi ham bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, yong'in xavfsizligini oldini olish bo'yicha ijodiy insholar, diktantlar tanlovi, kichik sahna ko'rinishlari va qiziqarli savol-javob o'yinlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda g'oliblar, mag'lublilar bo'lmadi.

XAZONLARNI YOQMANG, XOLAJON!

Bir kuni tabiatshunoslik darsida ustozimiz Nozima opa, hozir ayni xazonlar to'kiladigan payt, lekin uylarda, ko'chalarda aslo xazon yoqmaslik kerak. Chunki u yonganida zaharli gazlar atrofga tarqaladi. U nafaqat o'simliklarni, balki odamlarni ham zaharlaydi, dedilar. Shu kuni maktabdan qaytayotib, mahallamizdagi Qumri opaning uyi atrofidagi xazonlari bir yerga to'plab, gugurt chaqayotganlarini ko'rib qoldim. Darrov ularning oldilariga borib, salom bergach, xazon yoqish mumkinmasligini, undan zaharli gaz chiqib, hammamizni zaharlanishimiz mumkinligini aytdim. Shunda

ular menga bir qarab qo'yдилару hech narsa demasdan olov yoqishda davom etdilar. Atrofga birpasda xazonning tutunlari tarqaldi. Men indamay, uyimizga kirib ketdim. Shunda oyijonim: «Uf, eshik-derazalarni yop, tutunning hidi uyga kirib ketadi», dedilar. Mahallamiz boshida tutab, achimsiq


hid taratayotgan xazonning hidi ko'chamizning oxirida joylashgan bizning uyimizgacha yetib kelgandi. Shunda men oyijonimdan Qumri xola nega meni aytganlarimga quloq solmaganlarini so'raganimda, ular e'tibor bermasligimni aytdilar.

Oradan bir-ikki soat o'tgach, Qumri xolaning nevaralari kasalxonada yotqizilganini eshitib qoldik. U chala yongan xazonlarni titib o'ynab, kuyib qolibdi.

Shu o'rinda men barcha tengdoshlarimga, kattalarga xazonlarni yoqmasliklarini, zaharli tutun hammani, hatto oila a'zolarini ham zaharlab qo'yishini, bundan tashqari, yosh bolalar yongan xazonlarni o'ynab, yong'in chiqarishlari mumkinligini aytmoqchi edim.

Dilfuza AHMEDOVA,
Parkent tumanidagi
35-o'rta maktabning
5-sinf o'quvchisi

DIQQAT,
YONG'INI!



noqonuniy sotilayotgan pirotexnika vositalarini sotib olmasangiz, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Bizning niyatimiz birovlariga yomonlik ravo ko'rish emas, balki ayrimlar nazarida arzimagan o'yinchoq bo'lib tuyulgan pirotexnik vositalardan ayanchli hodisalar sodir bo'lishi mumkinligi haqida ogoh etishdir. Keling, aziz bolajonlar, hammamiz hamkorlikda ushbu pirotexnika vositalarini yo'q qilaylik!

Toshkent shahar Ichki ishlar boshqarmasi Yong'in xavfsizligi boshqarmasi xodimalari
Feruza SA'DULLAYEVA,
Muslima RAXIMOVA.



ERKATOYNING BU QORXAT SHE'RI... QACHON O'ZIN TO'KILAR TERI?

Yog'yapti qor gupillab,
Yurak urar dukillab.
Soat yurar «chiq»illab,
Xat yozaman «g'iyt»illab.
Oddiy xatmas, bu qorxat,
Xat olib bo'lmang karaxt.
Shartim bor, dada sizga
Quloq soling bir bizga:
Og'rimasin bunga bosh,
Damlab berasiz siz osh.
Dasturxon bo'lar to'la,
«Oqi»mas, «Ko'ka ko'la».
Shundan so'ng issiq somsa
Yeyish qanday zo'r, mazza.
Tushgacha askiyalar,
Bizni siypab silashlar...
Tushlikda chaynab norin,
«Fanta»ga to'lar qorin.
To'yib yemiz so'ng jizza,
Yana bo'lmang siz izza.
Uxlaymiz shundan keyin,
Par yostiqa olib tin.
Uyg'onganda kechqurun,
Qilib berasiz «ujin».
Hatto qaynatma sho'rva,
Olma, nok-la xushli-da.
Radiodan tinglab kuy-bayt,
Xo'playveraman «Sprayt».
Bugunchalik shartim shu,
Dengizdan bir tomchi bu.
Belni qiling baquvvat,
Oldinda juda ko'p shart.
Sizga aytayki shuni -
Kelar yakshanba kuni
Olamiz velosiped,
Innay keyinchi, maped!
Mayli, ketsa pul sal-pal -
Velosipedga signal.
Bozordan qaytaturib,
Jinsi olasiz erib.
Koja kurtka kiyamiz,
Hayron qolsin ayamiz.
Unga qo'shib «Tetris» ham,
Olaveramiz shu dam.
Keyin keladi navbat,
Zo'rda fotoapparat!..
Bo'lganimcha olifta,
Boraman karatega!
Qorxat nahot karaxt she'r,
Muallifi - Alisher!..

Alisher ISOMIDDINOV,
Nafis san'at litseyi o'quvchisi.

Aziz do'stlar!
Yana uch haftadan so'ng o'quv yilining ikkinchi choragi ham yakunlanadi. Bu - yarim dovondan oshdik, degani. Lekin, buni qarang-ki, umrimizning yana bir yili bilan ham xayrlashish arafasida turibmiz -a... Shunday bo'lsa-da, ko'tarinki kayfiyatda, xonadonlarimizdagi qishin-yozin yam-yashil turguchi archamizga mos o'yinchoqlar ilamiz, ezgu tilaklar bildiramiz.

Eh, Qorbobo bilan Qorqiz qatnashadigan Archa bayramiga yetadigani yo'q! Nima dedingiz? She'ru qo'shiq, jozibali raqslardan xumor-xumoringiz yozilib ketadi-da!

Ortda esa, mamlakatimiz bilan baqamti nafas olib amalga oshirilgan - havas qilsa arzigulik ishlar marvarid shodasidek tizilib turibdi. Shu yil biz «Kamolot» ijtimoiy harakatining o'zagi - Respublika Bolalar Departamenti tashkil etilganligining guvohi bo'ldik. Bu, eng quvonchli voqea bo'ldi. Zukko, iqtidorli bolalar va o'smirlarning anjumani kelgusi amaliy faoliyatimiz uchun o'z dasturini taqdim etdi. G'ayrat otini qamchilang endi, vatanparvar do'stlarim!


Oldinda esa... asosiy hal qiluvchi - uchinchi chorak «G'alvir suvdan ko'tarilguncha

harakat qilib qol!» deb kutib turibdi. Qishki ta'tilda miriqib dam olib, yana bilim kengliklarida qanot yozamiz.

Olam oq libosda kelinchakdek yasangan ushbu pallalarda

«Tong yulduzi» bolalar bilan hamnafas. Ularning jamiyatimiz ravnaqidagi ishtiroklar, izlanishlari va intilishlari Istiqlol poydevorini mustahkamlaydi. Ana shu jarayon ichida «Tong

G'AYRAT OTIGA MINIB...



Sizning barcha ezgu istaklaringizga tilakdosh bo'lgan holda, sevimli gazetangizning yanada maroqli va o'qimishli bo'lmog'i uchun qanday takliflaringiz borligi bizni juda qiziqtiradi. Yangi - 2003 yilda qaysi mavzular kengroq yoritilishini istaysiz? Dadil-dadil yozib yuboravering. Biz, ularni sinchiklab o'rganib, qamishdan bel bog'lab, harakat qilamiz. Shuningdek, siz aziz do'stlarimizdan manzilgohingiz, bilim maskaningiz, qaysi simfa o'qiyotganingiz hamda ism-sharifingizni to'liq yozib yuborishingizni so'raymiz.

yulduzi» sizga hamishalik sodiq do'st va samimiy maslahatchi bo'lib xizmat qilishga shay. Shuni nazarda tutgan holda sizdan yangidan-yangi takliflar, istak va mulohazalarni kutib qolamiz. Sadoqatli do'stingizni unutmang, - obunada kechikmang, sizni rang-barang mazmundor mavzular olami kutayotir.

Komillik sari yana bir qadam qo'yilajak Yangi yilda sizga baxt va omad yor bo'lsin. Umringiz serjilo, muqaddas Iyd Ramazon hayitingiz muborak bo'lsin.

Xatlaringizni kutamiz.

Sardor JONSARAK.



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir podsho yashagan ekan. Uning uch o'g'li bo'lib, podsho qarigach o'g'illaridan qaysi birini o'rmiga qoldirishni o'ylab qolibdi. Oxiri bir qarorga kelibdi va o'g'illariga o'z shartini aytibdi: -O'g'illarim, men qarib qoldim. Qay biringizni taxtga o'tkazishni uzoq o'ylab, bir qarorga keldim. Shaharlarni kezib, eng chiroyli, noyob narsani olib kelinglar. Kimning keltirgan buyumi o'zgacha

bo'lsa, shuni podshoh qilib taxtga o'tkazaman, - debdi...

Uch o'g'il uch tarafga tarqalib ketishibdi. Kenja o'g'il yo'l yuribdi, mo'l yuribdi, oxiri charchab uxlab qolibdi.

DUNYO SIR-SINOATGA TO'LA

Uyg'onib qarasa, oti yo'q emish. Nima qilishini bilmay o'ylanib o'tirganda bir odam paydo bo'libdi va undan: «Nima qilib o'tiribsan?» deb so'rabdi. U bo'lib o'tgan voqeani aytib beribdi. Shunda haligi odam, bor pilinga baliqlarga yemish olgin va har kuni suvga sepib tur, debdi. U boboning barcha aytganlarini qilib, ertasi kundan boshlab baliqlarga yemish sepa boshlabdi. Kun ketidan kun, oy ketidan oylar o'tib, oxiri uning puli tugabdi. Endi nima qilaman,

deb o'ylanib yotib, uxlab qolibdi.

Shu paytda dengizdagi baliqlar shohi barcha baliqlarni yig'ib, saxiy yigit nega bizga don sepmay qo'ydi, deb o'ylabdi va biz ham unga biror yaxshilik

qildikmi, debdi. Baliqlar yo'q deyishibdi. Shunda shoh barcha baliqlarga bittadan duru javohir keltirishlarini buyuribdi. Baliqlar darrov gavhar terib keltirishibdi va dengiz sohiliga chiqarib qo'yishibdi. Shahzoda uyg'onib sohildagi duru javohirlarni ko'rib, qilgan mehnati zoye ketmaganligiga xursand bo'libdi. Dur javohirlarni terakning ichiga solibdi va yo'lga tushibdi. Uchchala o'g'il bir joyga to'planishibdi. Shahzodalar zebziynatlarini maqtana

boshlashibdi. Kichkina ukalari terak ko'tarib olgani uchun ustidan kulishibdi. Kichkina shahzoda hech nima demabdi. Ular uyga yetib borishibdi. Saroydagilar ham kichkina shahzodani masxara qilib, ustidan kulishibdi. Shahzoda saroyda terakni bittalab yora boshlabdi. Uning ichidan chiqqan duru javohirlar, marvaridlarni ko'rib kulgular uyalib qolishibdi. Kichkina shahzoda podshoh bo'libdi. Qissadan hissa shuki, hech qachon o'ylamay, birovning ustidan kulish yaxshi emas.

Matluba ALIYEVA,
Surxondaryo viloyati,
Muzrobot tumani,
Xalqobod qo'rg'oni.

Ona yurtim - oltin beshigim
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa MUSURMONOVA,
Qahramon QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 11.583 nusxada ofset usulida bosildi.

Korxonada manzili:
«Buyuk Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № F-1058
Gazetani Muhabbat MAXSUDOVA sahifaladi.
Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75